



**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

THE STUDY OF KIPCHOK DIALECTS IN UZBEKISTAN LINGUISTICS

Hasanova Shahlo Erkinjon kizi

Namangan State University, Master's degree student, Linguistics

(Uzbek language)

Abstract: This article examines the work carried out within the framework of the study of Kipchak dialects in Uzbek dialects, as well as the specific linguistic features and linguistic characteristics of Kipchak dialects.

Key words: basic dialect, scientific-theoretical reasoning, dialects, dialectal differences, Kipchak, lingvoareal, dialect, linguogeography, areal linguistics.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA QIPCHOQ SHEVALARINING

O‘RGANILISHI

Hasanova Shahlo Erkinjon qizi,

Namangan davlat universiteti Lingvistika

(o`zbek tili) yo`nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o`zbek shevalari tarkibidagi qipchoq shevalarini tadqiq etish dorasida amalga oshirgan ishlar haqida, qipchoq shevalarining o`ziga xos ilsoniy belgilari, lingvistik xususiyatlari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so`zlar: asos dialekt, ilmiy-nazariy mulohaza, dialektlar, dialektal o`zgachalik, qipchoq, lingvoareal, lahja, lingvogeografiya, areal lingvistika.

ИЗУЧЕНИЕ КИПЧОКСКИХ ДИАЛЕКТОВ В ЛИНГВИСТИКЕ

УЗБЕКИСТАНА

Хасанова Шахло Эркинжон кизи,

Наманганский государственный университет, магистрантка,

лингвистика

(Узбекский язык)





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Аннотация: В данной статье рассматривается работа, проведенная в рамках исследования кыпчакских диалектов в узбекских диалектах, а также конкретные языковые особенности и лингвистические характеристики кыпчакских диалектов.

Ключевые слова: базовый диалект, научно-теоретическое рассуждение, диалекты, диалектные различия, кыпчакский, лингвоареальный, диалект, лингвогеография, ареальная лингвистика.

Olimlar doimo katta miqdordagi ma'lumot va juda ko'p sonli turli xil belgi-xususiyatlar bilan tadqiqot olib borilishi kerak bo'ladi. Bunday vaziyatda kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida o'rganish va tahlil qilish uchun hamda u yoki bu obyektning belgi-xususiyatini bilish uchun turli xil ilmiy metod va usullardan foydalanish zaruriyati yuzaga chiqadi. Tadqiqotning birlamchi ilmiy metodlaridan biri tasniflash yoki klassifikatsiyadir. Boshqa fanlarda bo'lgani kabi dialektologiyada ham tasniflash muhim ahamiyat kasb etadigan usullardan biri sanaladi. O'zbek milliy tili kabi rang-barang sheva va lahjalardan iborat murakkab tarkibli obyektни o'rganishda klassifikatsiya usuli birinchilardan qo'llanilishi kerak bo'lgan metodlardan hisoblanadi. Haqiqatan ham o'zbek xalq shevalari juda murakkab, turli qardosh va yot til hamda lahjalar ta'siriga ega tadqiqot obyekti sanaladi. Shuning uchun uni klassifikatsiya qilishda turli yo'nalishlarda ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Yillar davomida birlamchi lisoniy belgini topishda ikkilanishlar bo'lib, "oraliq yo'l", "markaz"ni tanlashda qiyinchilik va chalkashliklar bo'lgan. Bizningcha, hozirgi kunda mukammal deya qabul qilgan tasnifimizda lisoniy, hududiy, o'zga til va dialektlarning ta'siri omilidan ko'ra tarixiy-geniologik omil yetakchilik qiladi. Birinchidan, butun turkiy xalqlarning zamiri bo'lgan qarluq, qipchoq va o'g'uzlar o'zbek xalqining ham, tilining ham asosi sanaladi. Ikkinchidan, bu uchala lahja ham tarixiy madaniyat va adabiy til merosiga ega. Uchinchidan, tarixiy va qadimiy o'zbek adabiy tilida ham bu uch lahjaning ta'siri sezilarli darajada muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy o'zbek milliy va adabiy tilidagi qipchoq shevasi haqida ham shunday fikrni bildirish mumkin.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Qadimdan qipchoqlar va ularning tili turkiylar va turkiy tillarning katta guruhiga mansub boʻlgan. Bugungi kunda qipchoq tili “oʻlik til” sanalsa-da, qozoq, qoraqalpoq, qirgʻiz, tatar kabi tillarda, shuningdek, oʻzbek tilida ham oʻz elementlari orqali yashab kelmoqda. Oʻzbek shevalarini tadqiq qilgan mutaxassislarining barchasi, qanday termin bilan ataganidan qatʼi nazar, xoh u qipchoq yoki *j*-lovchi lahja boʻlsin, milliy tilimizda qipchoq elementlarining taʼsiri katta ekanligini taʼkidlaganlar hamda katta bir guruhga klassifikatsiya qilganlar. Zamonaviy oʻzbek dialektologiyasi paydo boʻlgandan beri bu lahja va uning oʻziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar yoritib kelinadi. Shuningdek, dialektologlar ichida *j*-lovchi qipchoq shevalarini alohida tadqiq qilganlar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Biz quyida ana shunday tadqiqotlarni tahlil va tavsif qilishga harakat qilamiz.

No	Soʻz	Izohi	No	Soʻz	Izohi
1	ađiđ/ayiđ (ayigʻ) (39-b.)	Ayiq	6	ebmāk (ebmak) (53-b.)	Non
2	ōkil (oʻkil); ōkil kiđi. (42-b.)	koʻp	7	būn (26-b.)	shoʻrva
3	apa (apa) (47-b.)	Ayiq	8	čumuq (26-b.)	olaqargʻa
4	ōzlā (oʻyla) (58-b.)	peshin, tush vaqti.	9	tamaq (26-b.)	tomoq (boʻgʻiz)
5	očan (oʻchan) (62-b.)	ikki yelkanli qayiq	10	bađmaq (152-b.)	toʻpiq

Zotan, yuqorida keltirilgan misollardan anglab olish mumkinki, qariyb, ming yillardan buyon milliy tilimizda, uning soʻz tarkibi va leksikasida hamda grammatik qurilishida, kishilar konseptual ongi va tushuncha apparatida sezilarli oʻzgarishlar roʻy bermagan. Tarixiy-tadrijiy taraqqiyot, diniy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va lisoniy taʼsir natijasida ayrim fonetik, morfologik hamda semantik evrilishlar yuz berganini taʼkidlash lozim.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Dastlab “Devonu lug‘ati-t-turk” asarining muallifi Mahmud Koshg‘ariyning qipchoq dialektiga munosabatini qayd etib o‘tish lozim. Mutafakkir butun tillardan ma’lumotlar yig‘ar ekan, sheva va lahjalarga, ularning fonetik-fonologik, leksik va morfologik xususiyatlariga, farqlanuvchi jihatlariga katta e’tibor qaratgan. O‘z lug‘atida leksik birliklarni izohlar ekan, qaysi qabila yoki urug‘ tiliga xos ekanligini urg‘ulagan. Shu o‘rinda lingvoqomusiy manbada qipchoqcha ekani qayd etilgan so‘zlarning ayrimlarini jadval asosida keltirib o‘tamiz. O‘zbek milliy tili ko‘p tarkibli murakkab shevalarga egaligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turadi. Shevalar tizimi murakkab va qorishiq holatga egaligi millatning tarixiy etnogoneziga bog‘liq bo‘lib, bir-biridan farqli rang-baranglik kasb etadi. Bu esa shevalar klassifikatsiyasini murakkablashtiradi. Buni o‘z vaqtida Y.D.Polivanov va V.V.Reshetov kabi olimlar ham qayd etib o‘tgan. Ammo qaysi klassifikatsiya bo‘lmasin, qipchoq alohida lahja sifatida tasnif qilib kelinmoqda. Buning asosiy sababi sifatida qipchoqlar tarixiyli, nufuzi va keng ko‘lamli ekanlini ko‘rsatish mumkin. O‘zbek dialektologiyasining tarixi davomida *j-lashgan, jelashgan, j-lovchi, jelovchi* kabi terminlar ham qo‘llanilgan bo‘lib, bular qipchoq atamasining tom sinonimini aks ettirgan. Ayniqsa, XX asrning 20-70-yillari davomida bu terminlar o‘zaro parallel tarzda qo‘llanilib kelingan. Zamonaviy shevashunosligimizda ham ayrim hollarda “*j-lovchi*” sifatida goh-gohida ifodalanib turishi, bu atama hali ham o‘z o‘rnini yo‘qotmaganidan dalolat beradi. Tilshunos-dialektologlar tomonidan yaratilgan asosiy klassifikatsiyalarda qipchoq lahjasiga bo‘lgan munosabat haqida o‘z kuzatishlarimiz quyidagicha:

1. Sherali Lapin – qipchoq yoki *j-lovchi* sheva va dialektlar haqida aniq bir ma’lumot bermaydi.
2. I.I.Zarubin – qipchoq yoki *j-lovchi* shevalarni o‘z tasnifiga kiritmaydi va buning sababi to‘g‘risida ma’lumot ham keltirib o‘tmaydi.
3. K.K.Yudaxin – dastlabki singarmonizm va eroniy tillarning ta’siri asosida tuzgan tasnifida qipchoq atamasini qo‘llamaydi, ammo keyinchalik yaratilgan,





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

mukammallashtirilgan klassifikatsiyasida ajratilgan 5 guruh o‘zbek shevalari orasiga qipchoq lahjasini ham kiritadi va tadqiq qiladi.

4. Y.D.Polivanov – o‘zbek shevalarining tasniflangan 3 katta guruhidan biri sifatida qipchoq shevasini ko‘rsatib beradi hamda uni 5 tipga ajratib tahlil qiladi. Olimning ushbu tasnifi o‘zbek dialektologiyasida eng mukammallaridan biri edi. Shuning uchun ham o‘zbek tilshunos-shevashunoslari uning xizmatlarini alohida qayd etadilar.

5. G‘.O.Yunusov – qipchoq lahjasini o‘zbek-qipchoq dialekti sifatida tasniflaydi hamda uni 4 guruhga ajratib tadqiq qiladi.

6. A.K.Borovkov – qipchoq shevalarini Shayboniy-o‘zbek yoki *j*-lovchilar lahjasi sifatida nomlaydi va Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Shimoliy Xorazm va Farg‘ona vodiysi shevalari guruhlariga bo‘lib o‘rganadi.

7. V.V.Reshetov – qipchoq shevalarini alohida 3 katta guruhning biri sifatida e’tirof etadi hamda fonetik, morfemik va morfologik belgilarini sinchiklab tahlil qilib beradi. Dialektning o‘ziga xos lingvistik tabiati va tarixiy-tadrijiy belgilarini injalab o‘rganib klassifikatsiya qilgani sabab hozirgacha o‘zbek shevashunosligining eng yaxshi tasnifi sifatida e’tirof etib kelinmoqda.

Yuqorida sanab o‘tganlarimiz shevalar tasnifining tarixiy bosqichlari edi. V.V.Reshetov tomonidan yaratilgan takomillashtirilgan tasnifdan so‘ng o‘zbek shevashunosligida ilmiy tadqiqotlar, asosan, shu klassifikatsiya asosida amalga oshirib kelinmoqda. Sheva va dialektlari qorishiq, rang-barang bo‘lgan o‘zbek milliy tilining, bizningcha, boshqa mukammal tasnifini amalga oshirish qiyin masala ekanligini e’tirof etgan holda o‘zbek dialektologiyasida qipchoq shevalarining tadqiqini tahlil qilish masalasiga e’tibor qaratamiz.

Shevashunosligimizda eng ko‘p o‘rganilgan lahjalardan biri qipchoq lahjasi hisoblanadi. Buning sabablaridan biri bu dialekt nufuz, ko‘lam va hudud jihatdan eng keng qamrovli lahja bo‘lsa, ikkinchidan, bir-biridan keskin farq qiluvchi lingvistik





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

xususiyatlarga ega shevalardan tashkil topgan. Sherali Lapin va I.I.Zarubin tasniflarida “qipchoq” termini uchramaydi, K.K.Yudaxin tomonidan amalga oshirilgan dastlabki klassifikatsiyada ham bu termin qo‘llanilmagan. Ammo keyingi ishlarida olim o‘z tasnifini yangilaydi hamda ajratilgan 5 lahja ichida qipchoq dialektini ham qayd etadi. Y.D.Polivanov o‘z klassifikatsiyasida “qipchoq” terminidan foydalanadi hamda o‘zbek shevalarining uchinchi guruhi sifatida tahlil qiladi. Olim qipchoq shevalarining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini farqlagan holda quyidagicha tiplarga taqsimlaydi:

1-tip: O‘rta va Shimoliy Xorazm; (Gurlan, Bog‘ot, Shoabboz, Xo‘jayli, Qipchoq, Qo‘ng‘irot, Mang‘it hududlari shevalari);

2-tip: O-lovchi tip; (Qozoq-Nayman, Farg‘ona qoraqalpoqlari);

3-tip: Qurama shevalari; Ohangaron vodiysidagi qurama shevalari;

4-tip: Shimoliy o‘zbek shevalari; Turkistondagi So‘zoq, Chalaqo‘rg‘on qishloq shevalari;

5-tip: O‘rta o‘zbek; Qirq shevalari va janubiy o‘zbek-laqay shevalari va Afg‘onistondagi qipchoq o‘zbeklari ham shu guruhga kiradi.

Y.D.Polivanovdan so‘ng 1936-yil tilshunos-olim, professor G‘ozi Olim Yunosov xalq shevalarini 3 katta guruhga taqsimlaydi. Biz bahs yuritayotgan dialektni “*O‘zbek-qipchoq*” termini bilan nomlaydi hamda yurtimizdagi barcha *j*-lovchi shevalarni bu guruhga kiritadi. O‘zbek-qipchoq lahjasini 4 shevaga ajratib tahlil qiladi. Bular – Qirq, Jaloyir-laqay, Qipchoq, Gurlan shevalaridan iborat. Bu dialekt vakillari Ohangaron, O‘ratepa, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Namangan, Qo‘qon, Gurlan, Chimboy, Qipchoq, Zarafshon, Buxoro, Qo‘ng‘irot hududlarida, shuningdek, Tojikiston va Afg‘onistonda yashaydigan 40 dan ortiq urug‘ vakillaridan iborat ekanligini qayd etadi ¹.

A.K.Borovkov tomonidan qayta tuzilgan va 1953-yil O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi axborotnomasida e‘lon qilingan tasnifda qipchoq dialektini “*Shayboniy-*

¹ Qjazi Alim Junus. Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. Taşkent: Davlat naşrijati, 1935. – B. 18-19.; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013. – B. 45.



o‘zbek yoki j-lovchi” deb nomlanadi². Bu lahjaning asosiy farqlovchi xususiyatlari sifatida “y”ning “j” talaffuz qilinishi, asosan 8-9 unliga ega ekanligi, *q* va *g*‘ tovushlari so‘z oxirida kelsa *v* shaklida talaffuz qilinishi, *q*, *g*‘, *k*, *g* undoshlar so‘z oxirida, ko‘pincha, tushib qolishi kabilarni sanab o‘tadi³. V.V.Reshetov qipchoq lahjasini katta bir guruh sifatida belgilaydi va uni qozoq va qoraqalpoq tillariga yaqin, ularning ta’siri sezilib turadigan bir dialekt ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu lahjaning farqlovchi belgilarini qayd etishda G‘.O.Yunusov va Y.D.Polivanov fikrlarini qo‘llab-quvvatlaydi. V.Reshetov quyidagilarni qipchoq dialektining xos belgilari sifatida keltiradi:

1	Kontrast juft unlilar <i>u/ü, o/ö, i/i, a/e</i> ning mavjudligi va buning natijasida singarmonizmning saqlanishi
2	<i>i,v,u (i,u,v)</i> kabi so‘z boshida kelgan o‘rta ko‘tarilish unlilarning diftonglashuvi
3	Qisqa va uzun unlilarning farqlanmasligi, undosh tovushining tushib qolishi hisobiga bo‘ladigan ikkinchi darajali cho‘ziqlikning mavjudligi: <i>suhbat (su:bat), bo‘lsa (bo‘so// bo‘sa)</i> kabi
4	So‘z boshida [y] ning, [j] ga o‘tishi: <i>yo‘l>jol, yomon>jamon//jomon</i> kabi
5	So‘z boshidagi <i>h</i> undoshning ortirilishi: <i>arra > harra, ayvon > hayvon</i> kabi
6	So‘z oxirida <i>k, q</i> undoshning tushib qolishi: <i>kichchi < kichik, sari < sariq</i> va boshqalar.

Morfologik xususiyatlari. Qaratqich va tushum kelishigi affiksida *n/d/t* tovushlarining almashinishi: *-ning//-ning, -ding//-ting,-ting, -ni//nin, -din//di, -tin//ti*. Shaxs olmoshlarining jo‘nalish kelishigi shakli *mayan, sayan, oyan* shaklida kelishi. Hozirgi zamon davom fe‘lining *-žatir* bilan yasalishi: *baražatir* kabi, hozirgi kelasi zamon sifatdosh *-tiyan* bilan yasalishi: *kelatiyan*. Shuningdek, leksikasida ham

² Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси: Дарслик. – Тошкент: А.Қодирий номидаги ХМН, 2004. – Б. 35-36.

³ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 35-36.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

boshqa o‘zbek shevalaridan farqlanuvchi xususiyatlar bor⁴.

Bundan tashqari, shevalarni tasniflashda akademik Sh.Shoabdurahmonov, V.Reshetovlar bir xil yondashuv asosida amalga oshirgan.

Qipchoq lahjasiga xos umumiy hamda hududiy shevalarga oid lingvistik xususiyatlari o‘zbek dialektologiyasida o‘rganilgan soha sifatida e’tirof etiladi. Bunga misol sifatida ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni sanab o‘tish mumkin. F.Abdullayevning O‘zbek tilining qipchoq shevasi (Namangan shevalari misolida), A.Ahmedovning “O‘zbek tilining Jo‘sh shevasi”, V.Egamovning “O‘zbek tilining G‘allaorol shevasi”, N.Shoimovanning “Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi”, A.Shermatovning “Qashqadaryo viloyat o‘zbek xalq shevalari”, “Quyil Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, E.Sheraliyevning “Leninobod (Xo‘jand) viloyatidagi o‘zbek shevalarining leksik-semantik xususiyatlari”, S.Rahimovning “O‘zbek tilining Surxondaryo shevalari”, N.Rajabovning “O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari”, “O‘zbek tilining Qarnob shevasi”, T.Mirsoatovning “O‘zbek tilining Qirq shevasi” A.Mamatqulov “Sherobod tuman o‘zbek j-lovchi shevasi”, B.Jo‘rayevning “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, “O‘zbek tilining Shaxrisabz shevasi” kabi o‘nlab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlar natijasida qipchoq shevasiga xos fonetik, morfologik, sintaktik amaliy ko‘nikmalar, nazariy bilimlar shakllangan, leksikaga oid milliy tilimizning boyligi sanaluvchi lug‘at to‘plangan. Ushbu tadqiqotlar qatorida qipchoq shevalarining bilimdoni, dialektolog-olim Xudoyberdi Doniyorovning xizmatlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Bir necha alohida tadqiqotlari va maqolalarida qipchoq shevasiga xos lisoniy va etnik xususiyatlarni tadqiq qilgan. “Eski o‘zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari”, “O‘zbek adabiy tilining rivojlanishida “J”lashgan shevalarning roli”, “Qipchoq dialektlarini o‘zbek adabiy tili bilan qiyoslab o‘rganish tajribasidan”, “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, “O‘zbek tilining Baxmal shevasi”, “O‘zbek adabiy tilini rivojlantirishda qipchoq shevalarining roli”, “Samarqand oblastidagi qipchoq

⁴ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 38-39.





shevalari vokalizmining klassifikatsiyasi”, “O‘zbek tili jelashgan (qipchoq) dialektining frazeologiyasi ustidan kuzatishlar” kabi o‘nlab ishlarida o‘zbek tilining qipchoq lahjasini tadqiq qilgan.

Professor X.Doniyorov shevalarni tadqiq qilishda tarixiy tadrijiy taraqqiyot omillariga, qaysi shevada so‘zlashmasin har informatorning kelib chiqish tarixini, qaysi urug‘ yoki qabila vakili ekanligiga e‘tibor qaratdi. Xalq tilidan yig‘ilgan milliy til materiallarini xalq ichida topilgan manbalar, tarixiy va ilmiy asarlar bilan qiyosan tahlil qildi. Unli va undosh tovushlar, ularning talaffuzi, singormanizm hodisasi va ularning shevalararo farqlanishi, dialektik birliklar va ularning grammatik xususiyatlari, hozirgi shevalar va ularning zamonaviy va tarixiy adabiy til bilan o‘xshash va farqliliklari haqida olib borgan tadqiqotlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Olim shevalarning urug‘ va shajaralararo farqlanishini sezgan holda sheva egasi bo‘lgan til sohibining kelib chiqish tarixiga bog‘lab tahlil qildi. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi shajara va urug‘lari haqida izlanishlar olib bordi. Shaxs nutqining individual xususiyatlari bilan birga jamoaviy xususiyatlari borligi, shaxs kabi urug‘ va qabilalardan ham o‘ziga xos jihatlar mavjud bo‘lishini teran anglagan edi. Tadqiqotlarida shevalarning etnolingvistik jihatlariga e‘tibor qaratgani olimning ilmiy yutuqlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yunusov G‘. **O‘zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba.** – Toshkent: Davlat nashriyoti, 1935. – B. 18–19.
2. Ashirboyev S. **O‘zbek dialektologiyasi.** – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013. – B. 45.
3. To‘ychiboyev B., Hasanov B. **O‘zbek dialektologiyasi.** – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi XMN, 2004. – B. 35–36.
4. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. **O‘zbek dialektologiyasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 35–39.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

5. Polivanov Ye.D. **Uzbekskaya dialektologiya i klassifikatsiya uzbekskix govorov.** – Moskva, 1930.
6. Yudaxin K.K. **Kirgizsko-russkiy slovar** (dialektologik materiallar bilan). – Moskva, 1965.
7. Borovkov A.K. **O klassifikatsii uzbekskix govorov.** – Tashkent: AN UzSSR, 1953.
8. Doniyorov X. **Qipchoq dialektlari va o‘zbek adabiy tili.** – Toshkent: Fan, 1968.
9. Doniyorov X. **O‘zbek tilining Baxmal shevasi.** – Toshkent: Fan, 1977.
10. Abdullayev F. **O‘zbek tilining qipchoq shevalari (Namangan materiallari asosida).** – Toshkent, 1975.
11. Ahmedov A. **O‘zbek tilining Jo‘sh shevasi.** – Toshkent, 1980.
12. Egamov V. **O‘zbek tilining G‘allaorol shevasi.** – Toshkent, 1985.
13. Shoimova N. **Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi.** – Toshkent, 1990.
14. Rajabov N. **O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari.** – Toshkent, 1971.
15. Mirsoatov T. **O‘zbek tilining Qirq shevasi.** – Toshkent, 1988.

